

Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



Toshkent – 2026



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZ KURASHISH – MUHIM STRATEGIK VAZIFA

Farrux GAYBULLAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya: iqlim inqirozi, beqarorlik va qutblanish davrida dunyo jamo-atchiligi manfaatlarini himoya qilish uchun dunyo ahli mas'uliyatli rahbarlar va mustaqil institutlarga har qachongidan ham ko'proq muhtoj - shunga qaramay, ko'pincha, ular yetishmayapti. Maqolada O'zbekistonda korrupsiyadan xoli muhit yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar strategiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, rasmiyatchilik, korrupsiyani idrok etish indeksi, korrupsiyaviy omillar, halollik standarti.*

**Бескомпромиссная борьба
с коррупцией — важная
стратегическая задача**

Фаррух Гайбуллаев,

Начальник Управления Министерства
высшего образования, науки и инноваций
Республики Узбекистан, доктор философии
(PhD) по юридическим наукам

Аннотация: в условиях климатичес-
кого кризиса, нестабильности и поляри-

зации населению мира как никогда
необходимы ответственные лидеры и
независимые институты для защиты
интересов мирового сообщества, однако
зачастую их не хватает. В данной статье
представлен комплексный обзор стратегии
масштабных реформ по созданию в
Узбекистане среды, свободной от
коррупции.

Ключевые слова: *коррупция, конфликт
интересов, бюрократия, индекс восприятия
коррупции, факторы коррупции, стандарт
добросовестности.*

**An uncompromising fight against corruption is
an important strategic task**

Farrukh Gaybullayev,

Head of Department at the Ministry of Higher
Education, Science and Innovation of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy
(PhD) in Legal Sciences

Abstract. in times of climate crisis,
instability and polarization, the world's people
need more than ever responsible leaders and

independent institutions to protect the interests of the global community - yet they are often lacking. This research paper presents a comprehensive review of the strategy for large-scale reforms to create a corruption-free environment in Uzbekistan.

Keywords: *corruption, conflict of interest, bureaucracy, corruption perception index, corruption factors, integrity standard.*

Davlatimiz rahbari 2025-yilning 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma-sida korrupsiya davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid ekanligini ta'kidlab, bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qildi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026- yilda e'lon qilingan "favqulodda holat" korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha murosasiz muhit yaratishda strategik qadam sanaladi.

2021-yilning 13-dekabrida Sharm-el-Sheyxda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Butunjahon konferensiyasida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tomonidan dunyoda korrupsiya tufayli soliq to'lovchilarning cho'ntaklaridan trillionlab dollar qiymatidagi mablag'lar maktab va kasalxonalarga yetib bormasdan, mansabdor shaxslar hisob raqamlariga tushayotganligi, bunda inson huquqlarini himoya qilishda korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim ekanligi alohida ta'kidlangan edi[1].

Hozir dunyoda korrupsiyaning zarari qariyb 3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi.

Biroq Prezidentimiz ta'kidlaganidek: **“Bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rilayotgan real zararning aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi. Eng yomoni — jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi”**[2].

Shu bois, aholining barcha qatlamlari orasida korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish masalasi davlat siyosati hamda davlat va jamiyat boshqaruvining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Korrupsiya so'zi — lotincha “cor” va “ruptum” so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, “cor” – vijdon, yurak, “ruptum” esa, buzilish, vayron bo'lish degan ma'nolarni anglatadi[3]. Demak, korrupsiya insonning vijdonan va axloqan buzilishi hisoblanadi.

“Transparency International” xalqaro nodavlat tashkiloti (TI) tomonidan 2026-yil 11-fevral kuni 2025-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption Perceptions Index) (keyinchalik – Reyting / CPI) e'lon qilindi. 2025-yil uchun Korrupsiyani idrok etish indeksi natijalariga ko'ra, O'zbekiston indeksda 31 ball bilan 182 ta davlat ichida 124-o'rinni egallagan[4].

“Transparency International” xalqaro nodavlat tashkiloti (TI) tomonidan 2026-yil 11-fevral kuni 2025-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption Perceptions Index) (keyinchalik – Reyting / CPI) e'lon qilindi. 2025-yil uchun Korrupsiyani idrok etish indeksi natijalariga ko'ra, O'zbekiston indeksda 31 ball bilan 182 ta davlat ichida 124-o'rinni egallagan[4].

100 ballik indeks bo'yicha O'zbekiston 31 ball (2024-yilda – 32 ball edi) to'plagan (bu

yerda 0 – korrupsiyaning o'ta yuqori darajasi, 100 – o'ta past darajasi).

Jahonda korrupsiyaga, shuningdek, uning latent tarkibiy qismiga qarshi kurashish har qanday davlat siyosatining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohadagi ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Davom etayotgan globallashtirish jarayonlari, jahon iqtisodiyotining shakllanishi korrupsiyani xalqaro darajaga olib chiqdi va u «zamonaviy yirtqich hayvon»ga aylandi. «Transparency International» xalqaro nodavlat tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, ma'lum yutuqlarga qaramay, aksariyat mamlakatlar hali ham korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olmayapti[4].

Qayd etilishicha, dunyoda korrupsiya darajasi, jumladan, demokratik mamlakatlarda ham, o'sishda davom etmoqda. 2025-yilgi Korrupsiyani idrok etish indeksiga ko'ra, AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya hamda qator Yevropa mamlakatlarida ko'rsatkichlar yomonlashgan.

2025-yilda korrupsiya bo'yicha o'rtacha jahon ko'rsatkichi 42 ballni tashkil etgan, bu so'nggi o'n yildan ortiq davrdagi eng past natija hisoblanadi. Dunyo mamlakatlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'i 50 balldan kam natija ko'rsatgan, 80 balldan yuqori ball olgan davlatlar soni esa, o'n yil ichida 12 tadan 5 tagacha kamaygan.

Reytingda ketma-ket sakkiz yildan beri 89 ball bilan Daniya yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o'rinlardan Finlyandiya (88) va Singapur (84) joy olgan. 182 ta davlat ichida eng oxirgi o'rinlarni Janubiy Sudan (9 ball), Somali (9 ball) va Venesuela (10 ball) egalladi.

Rossianing Korrupsiyani idrok etish ko'rsatkichi 22 ballni tashkil etdi. Bu mamlakatni 182 ta davlat orasida 157-o'ringa qo'yadi. Rossiya reytingda Gonduras,

Zimbabve va Chad bilan bir o'randan joy olgan.

Reytingda Markaziy Osiyo davlatlari – Qozog'iston 96-o'rin (38 ball), Qirg'iziston 142-o'rin (26 ball), Tojikiston 166-o'rin (19 ball), Turkmaniston 167-o'rin (17 ball) va Afg'oniston 169-o'randan (16 ball) joy olgan[4].

O'zbekiston ushbu reytingda 2023–2024-yillarda 121-o'rinni [egallagan edi](#). 2022-yilda esa, 126-o'rinni [qayd etgan](#).

Iqlim inqirozi, beqarorlik va qutblanish davrida dunyo jamoatchiligi manfaatlarini himoya qilish uchun dunyo ahli mas'uliyatli rahbarlar va mustaqil institutlarga har qachongidan ham ko'proq muhtoj, shunga qaramay, ko'pincha, ular yetishmayapti. «Transparency International» xalqaro nodavlat tashkiloti hukumatlar va rahbarlarni halollik bilan harakat qilishga va o'z fuqarolari uchun yaxshi kelajakni ta'minlash maqsadida, o'z majburiyatlarini bajarishga chaqirmoqda.

Takomillashtirilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasida (2026-yil 16-fevral) korrupsiyaga qarshi kurashish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, mamlakatimiz 2030-yilga borib, o'z pozitsiyasini 20 punktga yaxshilashni maqsad qilgan[5].

Shuningdek, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda e'lon qilingan «favqulodda holat» Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniyligni mustahkamlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish dolzarb masalalardan biri sanalishini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, fuqarolarning davlat organlariga ishonchini mustahkamlash va inson huquq hamda erkinliklarini kafolatlashda korrupsiyaga qarshi

murosasiz kurashish va uning oldini olish ustuvor strategiya sifatida belgilanib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish va korrupsiyadan xoli muhit yaratish borasida 2030-yilga borib, o'z pozitsiyamizni har yili: 2026-y.da – 4, Prezidentimiz raisligida o'tgan mazkur yig'ilishda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga tanqidiy baho berilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdiki, bu O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining yangi vektorlarini belgilab, aniqlashtirib berdi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshirilib, sezilarli bo'lishiga oid vazifalar belgilandi.

2027-y.da – 4, 2028-y.da – 4, 2029-y.da – 4, 2030-y.da – 4 punktga yaxshilashga erishishga qaratilgan. Bunda prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat davomida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirish natijasida, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi samaradorligi nuqtayi-nazaridan qayta ko'rishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz raisligida o'tgan mazkur yig'ilishda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga tanqidiy baho berilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdiki, bu O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining yangi vektorlarini belgilab, aniqlashtirib berdi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, milliy va

hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshirilib, sezilarli bo'lishiga oid vazifalar belgilandi.

Huquqshunos olim V.V. Astanin aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlarlar faoliyatidagi korrupsion xavf-xatarlarga to'xtalib, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining belgilangan majburiyatlar, taqiqlar va cheklovlarga rioya qilmasliklari, o'z faoliyatlarini amalga oshirishda vakolatlarini suiiste'mol qilishlari korrupsiyaviy xatarlarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi[7], degan fikrni bildiradi.

Agar prokuratura organi xodimi o'z majburiyatlarini bajarish davomida belgilangan kasb madaniyati va xizmat intizomiga rioya qilmasa, o'zboshimchalik bilan ish tutsa, taqiq va cheklovlarga rioya qilmasa, korrupsion xavf-xatarni yuzaga keltiradi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2025-yilning 5-mart kuni korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishdagi nutqida: **“Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov – bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat”** [6], deb ta'kidlanganida korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi nazarda tutilgan.

O'zbekistonda nafaqat prokuratura organlarida, balki barcha davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish eng ustuvor yo'nalishga aylanib ulgurmoqda. Buni 2017-2025-yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega me'yoriy-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham

ko'rish mumkin.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 5-mart kuni korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishdagi nutqida: **“Korrupsiyani yengish uchun birinchi navbatda uning ortiqcha hashamat va dabdaba degan “o'q ildizlarini” quritishimiz shart.**

Eng achinarlisi, bunga taniqli shaxslar bosh-qosh bo'layapti, odamlar ularga tenglashaman deb, o'zini “o'tga-cho'g'ga” urayapti.

Bu borada ayrim rahbarlar o'zining kamtarona turmush tarzi bilan barchaga namuna bo'lish o'rniga, bunday soxta qadriyatlar asiriga aylanib, noqonuniy daromad topishga intilayotgani ham bor gap” [4], - deya Parlament palatalari, mahalliy kengashlar, jamoatchilik vakillari, mahalla raislari, nuroniyatlarni bu masalaga bosh-qosh bo'lib, aholi orasida tushuntirish ishlarini kuchaytirishga chaqirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-71-son Farmonining 25-bandiga ko'ra: “To'y-hasham, ma'raka, marosimlarda ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida, ijtimoiy roliklar ishlab chiqish, ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borishga hamda ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish borasida keng qamrovli tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borishga e'tibor qaratilmoqda”.

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib

chiqib, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda e'lon qilingan “favqulodda holat” ning korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati katta va prokuratura faoliyatini tubdan takomillashtirish, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi”ga oid PF-21-son Farmoni[5] ning 89-maqsadida, **“Korrup-siyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish”** vazifasi belgilandi.

Bular:

1. “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida **20 pog'onaga** ko'tarilishga erishish.
2. Davlat xaridlarida ma'lumotlarini mashinada o'qiy oladigan formatda (Open Contracting Data Standard (OCDS) formatida) joylashtirish ulushini **100 foizga** yetkazish (hozirgi kunda bu ko'rsatkich **50 foizni** tashkil etadi).
3. Raqobatlashmagan usullarda amalga oshirilgan davlat xaridlari ulushini **20 foizdan** oshmasligini ta'minlash (bundan favqulodda holat va yagona yetkazib beruvchilar bilan amalga oshirilgan xaridlar mustasno). Hozirgi kunda bu ko'rsatkich **35 foizni** tashkil etadi.
4. **100 foiz** me'yoriy-huquqiy hujjatlarning korrupsiyadan xoli qonunchilik tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlash.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, “O'zbekiston – 2030” strategiyasini ishlab chiqishda yangi tahrirdagi Konstitutsiya(2023) miz asos vazifasini bajardi. Aynan yangi

tahrirdagi Konstitutsiyada davlat organlari faoliyatining asosiy mezonini bu – inson huquqlari, inson erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish ekani ko'rsatilgan.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish “O'zbekiston – 2030” strategiyasining muhim maqsadlaridan biri bo'lib, unga ko'ra:

- BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida **“Top-30”** kirishga erishish;
- elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini **90 foizdan** oshirish;
- “Xalq nazorati” portalini har bir hududda **100 foiz** joriy etish,
- faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini **50 foizgacha** yetkazish;
- kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini kamida **400 taga** yetkazish;
- mavjud **40 million** hujjatlardan **25 millionini** raqamlashtirish;
- “Raqamli hukumat” tizimining yagona platformasiga ulangan servislar sonini **700 taga** yetkazib, hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash”;
- **100 tadan** ortiq davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlarini 50 foizga qisqartirish;
- **500 taga** yaqin davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish;
- Davlat xizmatlarining **40 foizini** xususiy sektorga o'tkazish;
- Arxiv sohasida davlat xizmatlari sonini **14 taga** yetkazishdan iborat.

Takomillashtirilgan “O'zbekiston – 2030” strategiyasidagi asosiy mavzulardan yana biri – bu sud-huquq sohasidagi islohotlar bilan bog'liq. Sud-huquq sohasi islohotlarini bevosita 3 ta yo'nalishga bo'lish mumkin.

Birinchisi, sud-huquq tizimini raqamlashtirish yo'nalishi. Bu yerda, birinchi navbatda, fuqarolar sudlarga murojaat qilgan paytda har bir bosqichning raqamlashtirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish va fuqarolar sud bilan tezkor bog'lanishini ta'minlash uchun ham bu yo'nalish muhim hisoblanadi. Masalan, fuqaroga jinoiy ish qo'zg'atilgan paytda sudlardagi jarayonni kuzatishga va mavjud vaziyat bilan tanishishga ehtiyoj bor edi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, sud jarayonini to'liq elektronlashtirish va vaziyatni doimiy kuzatib turish tizimi shakllanadi.

Ikkinchi yo'nalish sifatida korrupsiyaning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni 2030-yilga qadar butun qonunchilik korrupsiyadan xoli bo'ladi. Bu ham davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Deylik, davlat xaridlari bilan bog'liq sohalarda yoki manfaatlar to'qnashuvi munosabatlarida korrupsion holatlarning oldini olish va bu sohani ham raqamlashtirish asosiy maqsad sifatida qaralmoqda.

Uchinchi yo'nalish sifatida Konstitutsiyada belgilangan aktlar, “Miranda qoidasi” kabi normalarni amaldagi qonunchilikka singdirishni ham strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qarashimiz mumkin. Umuman olganda, bu yo'nalishlardan asosiy maqsad, sudlarni, umuman, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xalqqa yanada yaqinlashtirish, xalq bilan o'zaro uzviy bog'liqlikni shakllantirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son Farmonining 4-bandiga ko'ra: **prokuror, ichki ishlar va soliq** organlari rahbarlari sektorlar faoliyati bo'yicha yuklatilgan vazifalardan ozod etildi. Sektorlar faoliyati bilan shug'ullanishga prokuror, ichki ishlar va soliq organlari o'rniga Bosh vazir o'rinbosarlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va ularning tizimi mas'ul etib belgilanishi ko'rsatib o'tildi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoniga 2-ilovasi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlanib, uning 8-bandida: "Korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish borasida prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirish va tashkiliy-huquqiy tizimini takomillashtirish" [8] vazifasi belgilandi: Prokuratura organlari tomonidan korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy faoliyatga alohida e'tibor qaratish.

2. Bosh prokuraturaning Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasi tarkibida mavjud shtat birliklari doirasida 3 ta shtat birligidan iborat korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish bo'limi faoliyatini yo'lga qo'yish, mazkur boshqarmaning hududiy prokuraturalardagi bo'linmalari joylarda korrupsiyaviy omillarni tahlil qilishga mas'ul etib belgilandi.

Shuningdek, mazkur chora-tadbirlarning 14-bandida: "Huquq-tartibot idora-larining ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari tomonidan jinoyat sodir etilgan mahallalarda ilmiy yondashuvlar asosida o'tkazilgan o'rganishlar samaradorligini oshirish" [8] va unga ko'ra: "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash tomonidan Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Milliy gvardiya tarkibidagi oliy ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son [qaroriga](#) asosan yuklatilgan vazifalar ijrosini eshitib, aniq chora-tadbirlar belgilab borish" belgilandi.

Demak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning jamoatchilik vakillari va nodavlat tashkilotlariga Murojaatida: "Korrupsiyaga qarshi kurash – umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishidir. Umuman, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak. Shu bois, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarur. Avvalo, nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish lozim. Bu – eng to'g'ri yo'l", - deb ta'kidlab, eng muhimi, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirilib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldorlik hissini kuchaytirish vazifasi yuklatilganini [4] unutmashimiz zarur.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan barcha mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi zamonaviy boshqaruv usullariga muvofiq, samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi eng muhim profilaktik vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish hisoblanadi. Xalqaro huquqiy hujjatlarda

“komplayens-nazorat” tizimining prinsiplaridan biri – korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (zero tolerance to corruption) – xodimlarda korrupsiyaga nisbatan “0 (nol)” darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirishga ahamiyat qaratiladi.

Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (zero tolerance to corruption) – xodimlarda korrupsiyaga nisbatan “0 (nol)” darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirishni ta’minlash maqsadida, quyidagilar taklif etiladi:

1. Mol-mulk, daromadlar deklaratsiyasi haqida norma mavjud emasligini sohadagi eng katta kamchilik sifatida qayd etish kerak va tegishli qonunning qabul qilinishini tezlashtirish zarur.

2. Shaffoflik (transparency) – faoliyatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash.

3. Korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish.

4. Barcha davlat idoralarida mavjud va ehtimoliy korrupsion harakatlar yuzasidan xabar berishga mo’ljallangan himoyalangan ichki va tashqi kanallar yaratish.

5. Aniq va ehtimoliy manfaatlar to’qnashuvi haqida xabar bermaganlik yoki chora ko’rmaganlik, davlat fuqarolik xizmati sohasida sovg’a olish yoki berish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlik belgilash.

Manba va adabiyotlar ro’yxati:

1. [Elektron manba]. UN anti-corruption conference begins with call to restore trust to tackle pandemic challenges, achieve sustainable development .<https://www.unodc.org/unodc/en/press/releases/2021/December/un-anti-corruptionconference-begins-with-call-to-restore-trust-to-tackle-pandemic-challenges-achieve-sustainable-development.html>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi //2023-yil. [Elektron manba]. URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-yuksak-xalqaro-mukofotni-topshirish-marosimidagi-nutqi_549682
3. Мишин Г.К. О теоретической разработке проблемы коррупции.– М.: Юрист, 2001. –С. 26.
4. <https://www.transparency.org/en/cpi/2026>
5. Takomillashtirilgan “O’zbekiston-2030” strategiyasi. // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
6. <https://president.uz/uz/lists/view/7924>. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha Milliy kengash yig’ilishidagi ma’ruzasi. //05.03.2025-yil.
7. Астанин В.В. Антикоррупционная политика России: криминологические аспекты. Диссертация., д.ю.н. –М., 2009. –С. 11.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o’tkazilgan kengaytirilgan yig’ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash bo’yicha amaliy chora-tadbirlar dasturi”. // <https://lex.uz/ru/docs/7486412>